

# PEDAGOGIK MAHORAT

8  
2023



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**8-son (2023-yil, sentabr)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2023, № 8

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.  
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy  
Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor*  
*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*  
*Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)*  
*Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)*  
*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*  
*Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*  
*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*  
*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*  
*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*  
*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*  
*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*  
*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*  
*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*  
*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*  
*Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Jumaev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*  
*Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

<b>ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH</b>			
41.	<b>MURODOV Oybek To‘raqulovich</b>	Informatika darslarini tashkil etishda innovatsion usullardan foydalanish	207
42.	<b>YADGAROVA Sadoqat Kenjabayevna</b>	Biologiya darslarini tashkil etishda o‘qituvchilarning kreativ yondashuvini rivojlantirish	212
43.	<b>XUDAYBERDIYEVA Arofat Isroilovna</b>	Fizika fanini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining tutgan o‘rni va uni baholash uslublari	218
44.	<b>BOZOROV Zavqiddin Ravshanovich, MAMATOXUNOVA Yulduzxon Abduraimjon qizi</b>	Uchinchi darajali algebraik tenglamalarni yechishda case-study texnologiyasini qo‘llash	223
<b>JISMONIY MADANIYAT VA SPORT</b>			
45.	<b>MO‘MINOV Feruzjon Ilxomovich</b>	Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik davrini modellashtirish	227
46.	<b>SAFOYEV Hasan Aminovich, MAMUROV Baxrom Baxshulloyevich</b>	Basketbol sport o‘yinlari mashg‘ulotlarini tashkil etish va uni o‘tkazish metodikasi	233
<b>SAN‘AT</b>			
47.	<b>SAMIYEVA Shaxnoz Xikmatovna, ASLANOVA Nargiza Xikmatovna</b>	Xalq amaliy bezak san‘atini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	242
<b>IQTISODIY TA‘LIM VA TARBIYA</b>			
48.	<b>PINYOZOV Ikromjon Hakimboyevich</b>	Talabalarning iqtisodiy bilimlarni shakllantirish orqali ularda tadbirkorlik qobiliyatini ruvojlantirishning noan‘anaviy usullari	246
<b>TA‘LIM MENEJMENTI</b>			
49.	<b>NARZULLOYEVA Feruza Fatulloyevna</b>	Zamonaviy oliy ta‘lim tizimini boshqarishda strategik qarorlar qabul qilish tamoyillari	251
50.	<b>HAZAROVA Сурпайё Жаббор қизи</b>	Умумтаълим мактабларида таълимни бошқариш ва кўллаб-қувватлаш технологиясини ривожлантириш	256
<b>MA‘NAVIYAT VA TARBIYA</b>			
51.	<b>ALIMOVA Shamsiya Raximovna</b>	Talabalarning ma‘naviyatini rivojlantirishda xalq pedagogikasining o‘rni	261
52.	<b>ASATOVA Barfiya Faxridinovna</b>	Boshlang‘ih sinflarda o‘tkazilayotgan tadbirlarning ahamiyati va ularni takomillashtirish metodikasi	265
53.	<b>GULBOYEV Akbar To‘xtayevich</b>	Art-pedagogik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalash	268
54.	<b>UMAROVA Iqboloy Akbutaevna</b>	Milliy qadriyatlarimizda mehr va saxovat tushunchalarining aks etishi	273
55.	<b>КИЯМОВ Нишон Содиқович</b>	Муסיқа санъатида тарбия масалалари	277
<b>PEDAGOGIK TA‘LIMOTLAR TARIXI</b>			
56.	<b>BARNOYEVA Zarina Sayfiddinovna</b>	Imom G‘azzoliy asarlarida pedagogik qarashlar hamda nafs tarbiyasi masalasi	281
57.	<b>САЛОХОВ Акмал Қамариддинович</b>	Ахмад Донишнинг таълим-тарбияга оид карашлари	286

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'TKAZILAYOTGAN TADBIRLARNING AHAMIYATI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

*Asatova Barfiya Faxridinovna,*

*Buxoro davlat universiteti Pedagogik ta'lim fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası stajyor-tatqiqotchisi  
barfiya.asatova@mail.ru*

*Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda o'tkazib kelinayotgan tadbirlar, ularning ssenariylarini tuzishda ahamiyat berilishi lozim bo'lgan qirralari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda asosan o'tkazib kelinayotgan tadbirlar ro'yxati taxminan berib o'tilgan. Tadbirlarning yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda, jamiyatga keng fikrlaydigan kreativ farzandlarni yetishtirib berishda nechog'li o'rni katta ekanligi haqida ushbu maqolada yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tadbir, ssenariy, maktab, tomoshabin, obraz, ijro, musiqa, qo'shiq, kelajak, madaniyat, ma'naviyat.*

**ЗНАЧЕНИЕ МЕРОПРИЯТИЙ, ПРОВОДИМЫХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ, И МЕТОДИКА ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ**

*В данной статье речь пойдет о мероприятиях, проводимых в начальных классах, аспектах, которым следует уделить внимание при создании их сценариев. Также приведен перечень мероприятий, которые в основном проводятся в начальных классах. В данной статье объясняется большая роль мероприятий в развитии молодого поколения во всех аспектах, в воспитании творческих детей, широких взглядов на общество.*

**Ключевые слова:** *событие, сценарий, школа, публика, образ, спектакль, музыка, песня, будущее, культура, духовность.*

**THE SIGNIFICANCE OF EVENTS HELD IN PRIMARY CLASSES AND THE METHODOLOGY OF THEIR IMPROVEMENT**

*This article is about the events held in primary classes, the aspects that should be given importance in creating their scenarios. Also, the list of activities that are mainly held in primary classes has been given. This article explains the importance of events in the development of the young generation in all aspects, and in raising creative children who are broad-minded to the society.*

**Key words:** *event, script, school, audience, image, performance, music, song, future, culture, spirituality.*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Bu borada yosh avlodni ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalash, avvalo, "maktab" deb atalmish muqaddas dargoh zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Maktabda esa barcha kuch boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga tushadi. Yosh avlodni maktabga qabul qilar ekan, unga ham ta'lim, ham tarbiya berib, ulg'aytiradi, yangi hayot bosqichiga tayyorlaydi. Bunda sinfdan tashqari tashkil etilgan tadbirlarning ahamiyati juda katta bo'lib hisoblanadi.

Tadbirlarni tashkil etishdan asosiy maqsad - milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalari keng targ'ib qilish va ommalashtirish, o'sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo'lgan hurmatni uyg'otish va saqlash, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda faol ishtirok etishdir. Zotan, xalqlarning o'ziga xosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarining o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun tadbirlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Tadbirlarni tashkil etishning bosh maqsadi tadbirlarni to'g'ri, maqsadli tashkil etishga o'rgatishdir. Tadbirlarda shaxs o'z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual xususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o'stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki,

u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini oʻziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi. Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda tadbirlarni tashkil etish va bu orqali yoshlarni tarbiyalash –hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Undan tashqari, tadbirlar milliy qadriyatlar, anʼanalar, urf-odatlar asosida vujudga kelgan boʻlib, har bir odamni mehr-shavqatli, mehr-oqibatli boʻlishiga daʼvat etadi, yer yuzida barqarorlik, birdamlik va ahillik tabiatini uygʻotadi, xalqlarning madaniyatlarini oʻzaro birlashtiradi, boyitadi, insonlarning millati, tili va dinidan qatʼiy nazar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bir soʻz bilan shuni aytish mumkinki, shaxsning maʼnaviy yuksalishi uning ijtimoiy faolligini oshiradi va jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi. Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov taraqqiyotning rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglagan holda, “Biron-bir jamiyat maʼnaviy imkoniyatlarini, odamlar ongida maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, oʻz istiqbolini tasavvur eta olmaydi”, deb taʼkidlagani bejiz emas, albatta. Insonlar ongida maʼnaviy-maʼrifiy, axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan tushunchalarini kengaytirish, jamiyatning faol aʼzosiga aylanish, Vatanni sevish, tinchlik, mustaqillikning qadriga yetish kabi qadriyatlar - tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, “maʼnaviyatni yuksaltirish – shu kunning dolzarb vazifalaridan biri. Kelajak poydevori boʻlmish yoshlar qalbi va ongiga boy maʼnaviy merosni singdirish asosida barkamol avlodni shakllantirish esa undan ham dolzarbroqdir.

**Asosiy qism.** Boshlangʻich sinflarda koʻp hollarda buyuk mutafakkirlarning tavalludiga atab tadbirlar tashkil etiladi. Bunda oʻquvchilar oʻsha shoir va yozuvchining hayoti va ijodi, uning asarlari bilan tanisha boshlaydilar. Oʻquvchilarga tadbir oʻtkazish uchun oʻqituvchi, avvalo, ssenariy tayyorlashi kerak. Oʻqituvchilarning eng asosiy xatosi ushbu ssenariylarni internet sahifalaridan tayyorgina chiqarib oladilar. Bu tayyor tadbirlar siyaqasi chiqqan bosqichlardan iborat boʻlib, oʻquvchilarni bir xillikdan charchatadi. Ssenariyni tuzishda oʻquvchilar yosh xususiyatlarini eʼtiborga olmoq zarur. Necha yillardan beri takrorlanib kelayotgan salom haqidagi sheʼrlar bilan emas, kirish soʻzlar, shoirning mashhur jumalari bilan ssenariy boshlansa, shoirning hayoti va ijodini yoritib berishda esa, shunchaki quruq soʻzlar bilan emas, sahna koʻrinishlari, badiiy obrazlar bilan namoyish etilsa, ham ijrochi. ham tomoshabin xotirasida qoladigan tadbir boʻladi. Masalan,

Orazin yopqach koʻzumdin sochilur har lahza yosh,  
Oʻylakim paydo boʻlur yulduz, nihon boʻlgʻach quyosh.

-misralarini bir oʻquvchi sahnaga yod aytib kiraversa, tomoshabinlar shu misralardan bugungi tadbir Alisher Navoiyga atab namoyish etilishini tushunadi. Misralarni tugatgan gʻazalxon – Ha, anglaganingizdek, bugungi tadbirimiz buyuk mutafakkir, soʻz mulkingning sultoni Alisher Navoiy tavalludiga bagʻishlanadi, deb qoʻshib qoʻyishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi ramzlariga atab oʻtkazilgan tadbirlarni oʻtkazishda, ona vatanga muhabbat, uning ramzlarga boʻlgan hurmat va eʼtiborni chuqur tarannum etuvchi sheʼr va qoʻshiqlar, sahna koʻrinishlari bilan namoyish etilsa, uning ssenariysini tuzishda esa qiziqarli faktlar, nimaga aynan shu ramz tanlaganligi haqida koʻplab materiallar yigʻib, tuzilsa tadbir ishtirokchilarining bir umr yodida qoladi va ona Vatanga boʻlgan muhabbati yanada oshadigan tadbir boʻladi.

“Vatan himoyachilari” kuniga bagʻishlab oʻtkaziladigan tadbirlarda, asosan, yigitlarni jalb qilib, turli shartlar bilan ularning kuchlari namoyish etilsa, sinfdosh qizlari oʻrtasida ularning obroʻlari yanada oshadi, oʻzini har tomonlama koʻrsatishga imkon yaratiladi. Shartlarni tuzishda ham bilimini, ham kuchini, ham aql-zakovatini sinaydigan topshiriqlar tanlansa maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Boshlangʻich sinflarda asosan quyidagi mavzularda tadbirlar oʻtkaziladi. (1-jadval)

№	Oylar	Tadbirlar
1	Sentabrda	“Mustaqillik”, “Birinchi qoʻngʻiroq” tadbirlari
2	Oktabrda	“Ustoz va murabbiylar”, “Oʻzbek tili-Davlat tili” tadbirlari
3	Noyabrda	“Bayrogʻimiz faxrimiz”, “Mehrjon” tadbirlari
4	Dekabr	“Konstitutsiya”, “Madhiyani kuylaylik”, “Savodxonlik”, “Yangi yil” tadbirlari
5	Yanvar	“Vatan himoyachilari” kuni, “Birinchi Prezidentimiz tavallud topgan kuni” tadbirlari
6	Fevral	“Alisher Navoiy” va “Bobur-shoh va shoir” tadbirlari
7	Mart	“Zulfiyaxonim”, “Xotin- qizlar bayrami”, “Navroʻz” tadbirlari
8	April	“Muhammad Yusuf”, “Kitob-qablarni yorituvchi nur” tadbirlari
9	May	“Xotira va qadrlash”, “Soʻngi qoʻngʻiroq” tadbirlari

1-jadval. Boshlangʻich sinflarda oʻtkaziladigan tadbirlar roʻyxati

8-mart “Xalqaro xotin qizlar kuni”ga bagʻishlab oʻtkazilgan tadbirlarda sinfdagi qizlar bilan “Balli qizlar”, “Orasta qizlar”, “Zumradoylar davrasi” kabi tanlovlar tashkil etilsa, qizlarimizning har tomonlama isteʼdodlari, koʻrinmay qolgan qirralari ochiladi. Qizlar oʻzlarini sinfdosh doʻstlari oldida bor isteʼdodlarini namoyish etishga chogʻlanishadi.

**Tadbirga musiqa tanlashda** ham alohida eʼtibor qaratish lozim. Qoʻshiq shoir davriga xos ogʻir, shuningdek, bolalarni zeriktirmaydigan holda tanlanishi kerak. Masalan, xotin-qizlar bayramiga bagʻishlangan tadbirlarda onalar tantanali ravishda sahnaga taklif qilingandan soʻng «Onajonlar, assalom!» qoʻshigʻi ijro etiladi. Qoʻshiq tugashi bilan boshlovchilar onalar haqida allomalar soʻzlaridan namunalari oʻqishadi. Bu qoʻshiq alohida nomer sifatida foydalanilganligi uchun tadbir epizodining mavzusiga toʻgʻri keladigan tarkibiy qismga aylanib ketadi. Qoʻshiqdan foydalanishning mazkur varianti tadbirlarda juda keng qoʻllanilib, sheʼr oʻqilayotganda ham, kinolavhalar koʻrsatilayotganda ham, dramatik parchalar ijro etilayotganda ham bu vositalarning taʼsirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. Davlat ramzlariga atab oʻtkazilgan tadbirlarni, asosan, Oʻzbekiston Respublikasining madhiyasi bilan boshlash maqsadga muvofiq boʻladi. Qoʻshiq, asosan, tadbir taʼsirini kuchaytiruvchi vosita sifatida ham ishlatilib, aytilayotgan fikrning nozik qirralarini ommaga yetkazib berishga xizmat qiladi. Tadbir mazmuniga qarab, asosan, musiqali chiqishlardan, musiqali anraktlardan va musiqali yakunlashlardan foydalanish mumkin.


**Dramatik parchalar.** Sanʼatning bu turi boshqa badiiy asarlardan farq qilib, unda gʻoyalar kurashi, qarama-qarshi konfliktlar yorqinroq, oydinroq yoritiladi. Shuning uchun teatrlashtirilgan tadbirlarda mazmun rivojiga qarab, dramatik parchalardan keng foydalaniladi.

Tadbirlarda dramatik parchalardan foydalanishning ikki xil usuli bor: 1. Tayyor asarlardan olingan parchalar. 2. Ssenaristning oʻzi tadbir uchun maxsus yozgan dramatik epizodlari. Teatrlashtirishda faqatgina pyessalardan parchalar olinishi bilan kifoyalanib qolmasdan, kecha yoʻnalishiga qarab, badiiy adabiyotlardan ham parchalar olinadi. Dramatik parchalardan foydalanishning ikkinchi usuli ham keyingi paytda juda koʻp qoʻllanilmoqda. Tadbirning asosiy fazilatlaridan biri mahalliy voqealarni aks ettirish boʻlgani uchun, ssenariy avtorlari joylarda boʻlayotgan (yoki boʻlishi mumkin boʻlgan) voqealarni kichik dramatik lavha shakliga keltirib, undan samarali foydalanmoqda.

**Xulosa.** Yuqorida aytib oʻtganimizdek, har qanday tadbir ijodiy va tashkiliy jarayonlarni oʻz ichiga oladi. Ijodiy ishlarga tadbirning ssenariy rejasini tuzish, ssenariysini yozish, sahnalashtirish, badiiy jamoalar bilan ishlash, tadbir oʻtadigan joyni bezash kabi ishlar kirsa, tashkiliy ishlarga esa ana shu ijodiy ishlarni amalga oshirish uchun qilinadigan barcha ishlar kiradi. Masalan, badiiy jamoalar bilan ishlash uchun mikrofonlar, texnik jihozlarni tayyorlash kabi vazifalar shular jumlasidandir. Xulosa qilib aytganda, tadbirlar - farzandlarimizni maʼnaviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimni oʻstirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, boʻsh vaqtini samarali oʻtkazishga qaratilgan ijodiy va tashkiliy jarayondir. Ijodiy va tashkiliy jarayonlar uygʻunligiga erishish –maʼruzalar, repititsiyalar, mashqlar, trenajlar, kurs ishlarini tayyorlash jarayonlarida sayqallanib boriladi, hamda ularning aktyorlik, rejissyorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik qobiliyatlari shakllantirib boriladi. Oʻquvchilarning ham maktabga zavq bilan kelishlari uchun motivatsiya boʻla oladigan tadbirlarni ustozlar koʻproq tashkil qilsalar, oʻz obroʻlarini ota-onalar oldida oshirish bilan birga, yosh avlodni har tomonlama yetuk, oʻz fikrini bemalol bayon qila oladigan, har qanday vaziyatda ham osongina yechim topa oladigan avlodni tarbiyalay oladilar. deb oʻylaymiz. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, “Ilm yoʻq joyda qoloqlik, jaholat va toʻgʻri yoʻldan adashish boʻladi. Jamiyatni rivojlantirish uchun ilm-maʼrifat va yuksak maʼnaviyat kerak. Eng yaxshi meros – bu yaxshi tarbiya. Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm. Eng katta qashshoqlik bu ilmsizlikdir.” Shunday ekan, eng katta boylikka erishish uchun tinmay mehnat qilish va Prezidentimiz yaratib berayotgan sharoitlarning qadriga yetib, ilm va tarbiya olishdan va berishdan hech qachon charchamaylik.

#### Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20-dekabr 2022.
2. Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yoʻlida. Asarlar, 6-jild. T., Oʻzbekiston, 1998, 125-bet.
3. Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
4. Sayfullayev B.S., Rustamov V.K. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. T.2016



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo’llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o’tamiz, maqola qo’lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo’limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko’chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g’aznachiligi  
23402000300100001010  
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275  
BuxDU 400110860064017094100079001

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

<p><b>PEDAGOGIK MAHORAT</b></p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2023-yil 8-son (96)</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o’quv yurtlarining professor-o’qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o’qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo’ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul:</b> <b>Nigora SAYFULLAYEVA</b> <b>Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA</b> <b>Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA</b></p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 28.09.2023 Bosmaxonaga topshirish vaqti 29.09.2023 Qog’oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog’i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko’chasi 344-uy.</p>
---	--	--